



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TASHQI MIGRATSIYA SHAROITIDA OILAVIY QADRIYATLAR DEFORMATSIYASI VA BARQARORLIGINI BELGILOVCHI IJTIMOYIY OMILLAR

Ruzimova Nigina Muhamedovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, dekan o'rinbosari

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv va tashqi migratsiya jarayonlarining zamonaviy oila institutiga ta'siri sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiya sharoitida oilaviy qadriyatlar deformatsiyaga uchrashi (o'zgarishi) va shu bilan birga, oila barqarorligini saqlab qoluvchi asosiy ijtimoiy omillar yoritilgan. Muallif tomonidan migrant oilalarda er-xotin o'rtasidagi masofaviy munosabatlar, farzand tarbiyasidagi bo'shliqlar va ijtimoiy nazoratning susayishi kabi omillarning salbiy hamda ijobiy jihatlari ochib berilgan. Maqola yakunida oilaviy qadriyatlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tashqi migratsiya, oilaviy qadriyatlar, deformatsiya, ijtimoiy omillar, barqarorlik, transformatsiya, ijtimoiy nazorat, masofaviy muloqot.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ДЕФОРМАЦИЮ И УСТОЙЧИВОСТЬ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ

Рузимова Нигина Мухамедовна

Международная исламская академия Узбекистана, заместитель декана

Аннотация

В данной статье с социологической точки зрения анализируется влияние процессов глобализации и внешней миграции на современный институт семьи. В исследовании освещаются процессы деформации (изменения) семейных ценностей в условиях миграции, а также основные социальные факторы, способствующие сохранению стабильности семьи. Автором раскрыты как отрицательные, так и положительные аспекты таких факторов, как дистанционные отношения между супругами в семьях мигрантов, пробелы в воспитании детей и ослабление социального контроля. В завершение статьи выдвинуты научно-практические предложения по обеспечению устойчивости семейных ценностей.

Ключевые слова: внешняя миграция, семейные ценности, деформация, социальные факторы, устойчивость, трансформация, социальный контроль, дистанционное общение.

SOCIAL FACTORS DETERMINING THE DEFORMATION AND STABILITY OF FAMILY VALUES IN THE CONTEXT OF EXTERNAL MIGRATION

Ruzimova Nigina Mukhamedovna

International Islamic Academy of Uzbekistan, Deputy Dean

Abstract

This article provides a sociological analysis of the impact of globalization and external migration processes on the modern institution of the family. The study highlights the deformation (transformation) of family values under migration conditions, while simultaneously identifying the key social factors that preserve family stability. The author explores both the negative and positive aspects of factors such as long-distance relationships between spouses in migrant families, gaps in child-rearing, and the weakening of social control. The article concludes with scientific and practical recommendations for ensuring the sustainability of family values.

Keywords: external migration, family values, deformation, social factors, stability, transformation, social control, remote communication.

XXI asrda globallashuv jarayonlari, iqtisodiy tengsizlik va siyosiy beqarorlik kabi omillar natijasida tashqi migratsiya inson hayotiga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatayotgan asosiy ijtimoiy jarayonlardan biriga aylandi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda xalqaro migrantlar soni 281 million kishiga yetgan bo'lib, bu dunyo aholisining qariyb 3,6 foizini tashkil etadi. Zamonaviy sotsiologiyada migratsiya nafaqat mehnat resurslarining hududiy harakati, balki shaxsning ma'naviy

dunyosi va ijtimoiy rollar tizimini qayta shakllantiruvchi obyektiv zaruriyat sifatida talqin etiladi. O'zbekiston sharoitida ham migratsiya muhim ijtimoiy masala bo'lib, 2022-yil holatiga ko'ra xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar soni 2 milliondan oshganligi ushbu jarayonning jamiyat hayotidagi naqadar yuqori salmoqqa ega ekanini ko'rsatadi.

Oila har qanday davlat uchun jamiyat barqarorligini belgilovchi strategik ustun va madaniy merosni avlodlarga yetkazuvchi eng muhim institut hisoblanadi. Biroq, tashqi migratsiya jarayonlari jamiyatning ushbu asosiy bo'g'iniga ikki yoqlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, migratsiya pul o'tkazmalari orqali oilalarning moddiy farovonligini oshirib, ta'lim va sog'liqni saqlash imkoniyatlarini yaxshilasa, ikkinchi tomondan, oilaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli migratsiya oilaviy birlikni zaiflashtirib, «masofaviy oila» fenomenining yuzaga kelishiga, gender rollarining deformatsiyasiga va farzandlar tarbiyasida «ijtimoiy yetimlik» kabi ma'naviy bo'shliqlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, an'anaviy oilaviy qadriyatlarining (mehr-oqibat, ota-onaga hurmat) individualistik va materialistik qarashlar bilan almashinishi jamiyatda yangi ijtimoiy paradigmalarning shakllanishini tezlashtirmoqda.

ASOSIY QISM

Zamonaviy tashqi migratsiya jarayonlari an'anaviy oila modelining nafaqat tuzilmaviy, balki funksional negizlariga ham tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ilgari Markaziy Osiyo jamiyatlari, xususan, O'zbekiston uchun xos bo'lgan va oila boshlig'ining mutlaq yetakchiligiga tayangan patriarxal munosabatlar tizimi bugungi kunda migratsiya ta'sirida demokratik yoki ayrim hollarda dezorganizatsiyalashgan shakllarga o'tmoqda. 800 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'rovda qatnashganlarning 47,5 foizi oilaviy sadoqat, ota-onaga bo'lgan hurmat va umuman oila tushunchasining ichki mazmun-mohiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz berganligini qayd etgan. Xorijiy mamlakatlarda uzoq muddat istiqomat qilayotgan migrantlar hayot tarzida individuallikka intilish va shaxsiy manfaatlarni jamoaviy (oilaviy) manfaatlardan ustun qo'yish holatlarining kuchayishi kuzatilmoqda. Bu jarayon an'anaviy kollektivizm madaniyatiga zid kelib, oilaviy qadriyatlarining deformatsiyasiga sabab bo'luvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda [11].

Migratsiya natijasida oiladagi gender rollarining qayta taqsimlanishi bugungi kunning eng dolzarb ijtimoiy masalalaridan biriga aylandi. Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, respondentlarning 39,8 foizi ayollar turmush o'rtog'ining yo'qligi sababli oilani boshqarish, farzandlar tarbiyasi va hatto ro'zg'orning moddiy ta'minoti kabi an'anaviy «erkaklik» vazifalarini ham o'z zimmasiga olishga majbur bo'layotganini ta'kidlagan. Ushbu holat bir tomondan mustaqil qaror qabul qiluvchi va faol ayollar qatlamining shakllanishiga zamin yaratsa-da, ikkinchi tomondan ularga yuklanayotgan ortiqcha ruhiy va ijtimoiy bosimlar muhitni keskinlashtirmoqda. Shu bilan birga, migrant erkaklarning xorijda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishi va yangi madaniy muhitga moslashishi ularning o'z oilasi oldidagi an'anaviy mas'uliyatlarini qayta baholashiga yoki ba'zi holatlarda «soxta nikohlar» tufayli vatandagi oilasidan butunlay uzoqlashishiga zamin yaratmoqda [7].

Uzoq davom etuvchi migratsiya jarayonlari natijasida sotsiumda «masofaviy oila» yoki «transmilliy oila» fenomeni yuzaga keldi. Bunday oilalarda a'zolar jismonan turli mamlakatlarda bo'lsa-da, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yagona birlikni saqlashga intiladilar. Biroq, amaliyotda bunday sharoitda oila ichidagi hissiy yaqinlik darajasi sezilarli darajada pasayishi kuzatilmoqda. Sotsiologik tahlillar respondentlarning 58,7 foizi turmush o'rtog'i bilan o'rtadagi hissiy masofa kengayganini va muloqotlar asosan moddiy-moliyaviy mavzular bilan cheklanib qolganligini tasdiqlaydi. Sotsiologiyada «ruhiy ajralish» deb ataluvchi ushbu fenomen oilaning ichki muvozanatini buzuvchi xavfli omilga aylanmoqda. Ayniqsa, oila boshlig'ining yo'qligi oqibatida yuzaga kelayotgan «ijtimoiy yetimlik» va hissiy bo'shliqlar (64,3% holatda) an'anaviy oilaviy qadriyatlarining avloddan-avlodga o'tish tizimini xavf ostida qoldirmoqda [8].

Tashqi migratsiya jarayoni oilaviy munosabatlarga faqat deformatsiyalovchi ta'sir ko'rsatib qolmay, balki muayyan sharoitlarda oila barqarorligini ta'minlovchi yangi ijtimoiy mexanizmlarni ham yuzaga keltiradi. Iqtisodiy zaruriyat migratsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, oila barqarorligida ikki yoqlama rol o'ynaydi: tadqiqotlarimizda aniqlangandek, respondentlarning 72,1 foizi xorijdan kelayotgan pul o'tkazmalari tufayli oilaning iqtisodiy ahvoli yaxshilanganini alohida e'tirof etgan [11]. Moddiy mablag'larning ortishi farzandlarning sifatli ta'lim olishi, uy-joy sharoitlarini yaxshilash va zamonaviy tibbiy xizmatlardan foydalanishda yangi imkoniyatlar yaratishi barobarida, oilaning umumiy iqtisodiy maqsadlar atrofida birlashishi ichki jipslikni ma'lum darajada saqlab turadi. Shunga qaramay, moddiy ta'minot hissiy bo'shliqni to'liq qoplay olmaydi va intervyularda «pul ko'p bo'ldi, lekin baxt

kamaydi» qabilidagi fikrlar tez-tez takrorlanadi [10].

Zamonaviy axborot texnologiyalari esa «masofaviy oila»larda muloqotni saqlab qolishning eng muhim vositasiga aylandi; ijtimoiy tarmoqlar va videoaloqa vositalari migrantlarga o'z oilalarining kundalik hayotida masofadan turib ishtirok etish va muhim qarorlarni birgalikda muhokama qilish imkonini beradi. Bu borada o'tkazilgan so'rovnomalarda migrantlarning 72 foizi ijtimoiy tarmoqlar orqali olingan ma'lumotlar va muvaffaqiyat hikoyalari ularning migratsion strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini bildirgan. Ma'naviy-axloqiy jihatdan diniy va milliy qadriyatlar migratsiyaning salbiy oqibatlariga qarshi o'ziga xos «himoya mexanizmi» vazifasini o'taydi. Olib borilgan so'rovnomalimizda o'zbek yoshlari uchun «ota-onaga hurmat» (85,3%) va «er-xotin o'rtasidagi sadoqat» (73,6%) hanuz eng yuqori qadriyatlar bo'lib qolayotgani aniqlangan bo'lib, bu Islom dini ta'limotidagi oilaning muqaddasligi va mas'uliyat tushunchalari bilan uyg'unlashib, oila a'zolari o'rtasidagi axloqiy majburiyatlarni mustahkamlaydi [12].

Oila barqarorligi, shuningdek, O'zbekistonga xos bo'lgan mahalla instituti va keng qarindosh-urug'chilik tarmog'ining ijtimoiy nazorati hamda ma'naviy ko'magiga ham tayanadi. U. Jabbarov va boshqa tadqiqotchilarning qayd etishicha, oiladagi an'anaviy rollarning transformatsiyasi jarayonida tashqi qo'llab-quvvatlash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Davlat tomonidan qabul qilingan «Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi kabi huquqiy hujjatlar migrant oilalarini ijtimoiy himoya qilishning institutsional asosini yaratib, ularni jamiyatga qayta integratsiya qilish va iqtisodiy faolligini oshirish orqali oilalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tashqi migratsiya jarayoni oilaning nafaqat bugungi holatiga, balki kelajak avlodlarning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga ham fundamental ta'sir ko'rsatadi. Farzandlar tarbiyasi va ularning ijtimoiylashuvi masalasi migratsiyaning eng nozik va strategik jihati bo'lib, olimlar tadqiqotlarida bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari alohida qayd etilgan. Xorijda yashayotgan yoki ota-onasi migratsiyada bo'lgan yoshlar orasida an'anaviy kollektiv qadriyatlardan ko'ra shaxsiy erkinlik va mustaqil qaror qabul qilishga intilishning kuchayishi individuallikning ortishidan dalolat beradi. Shu bilan birga, migrantlarning farzandlarida ona tili va milliy o'zlikdan begonalashish natijasida «madaniy bo'shliq» yuzaga kelishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning 47,5 foizi migratsiya ta'sirida an'anaviy oilaviy qadriyatlarga munosabat o'zgarayotganini va muvaffaqiyat tushunchasi ko'proq moddiy farovonlik bilan o'lchanayotganini ta'kidlagan. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yoshlar ongida migratsiya haqida «ideal tasavvurlar» shakllanib, bu ularning o'z vatanidagi real imkoniyatlarini past baholashiga olib kelmoqda [10].

Ota-onasi tirik bo'la turib, ularning tarbiyasi va mehridan mahrum holda ulg'ayayotgan bolalar orasida «ijtimoiy yetimlik» fenomeni xavfi kuchaymoqda. O'tkazgan so'rovnomalimizda qatnashganlarning 64,3 foizi otaning yo'qligi sababli bolalar tarbiyasi va intizomida salbiy o'zgarishlar bo'layotganini bildirgan [12]. Ota-ona mehrining yetishmasligi bolalarda ruhiy tushkunlik, ijtimoiy izolyatsiya va o'z-o'ziga ishonch pasayishi kabi psixologik oqibatlarga sabab bo'ladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda virtual muloqot orqali ota yoki onaning bola ta'lim jarayonida masofadan faol ishtirok etishini ta'minlash muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, migrant farzandlariga maktab va mahalla tomonidan alohida psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish tizimini kuchaytirish hamda bola ongiga ota-onaning mehnati oila farovonligi uchun ekanligini to'g'ri tushuntirish zarur. Davlat tomonidan migrant oilalari farzandlarini ijtimoiy himoya qilish va ularning sifatli ta'lim olishi uchun qo'shimcha imtiyozlar joriy etilishi avlodlar davomiyligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xulosa qilib aytganda, migratsiya sharoitida avlodlar davomiyligini ta'minlash nafaqat iqtisodiy ko'makka, balki farzandlarning ruhiy va ma'naviy tarbiyasiga qaratilgan kompleks ijtimoiy siyosatni talab qiladi.

Sotsiologiyada tashqi migratsiyaning oilaga ta'sirini tadqiq etishda «transformatsiya» va «deformatsiya» terminlarini o'zaro farqlash ilmiy mantiq nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarni faqat biryoqlama — salbiy yoki faqat tabiiy deb baholash tadqiqotning ilmiy xolisligiga putur yetkazishi mumkin. Bizning yondashuvimizga ko'ra, oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi oila institutining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, globallashuv va raqamli jamiyat talablariga moslashishini ifodalaydi. Bunda oila o'z funksiyalarini butunlay yo'qotmasdan, balki ularni zamon ruhiga mos ravishda yangilab boradi. Jumladan, an'anaviy avtoritar-patriarxal modeldan demokratik munosabatlarga o'tish hamda oilada ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligining oshishi (39,8% holatda) aynan transformatsiya natijasi sifatida baholanadi. Natijada oilaviy munosabatlar sifat jihatidan yangilanadi va «transmilliy oila» shaklida bo'lsa-da, o'z hayotiyligini saqlab qoladi [11].

Bunga qarama-qarshi ravishda, oilaviy qadriyatlar deformatsiyasi oilaning ichki tuzilmasi,

axloqiy-ma'naviy negizlari va asosiy funksiyalarining migratsiya hamda masofa ta'sirida salbiy tomonga o'zgarishini anglatadi. Bu jarayonda qadriyatlar tizimida «uzilish» yoki «bo'shliq» yuzaga kelib, institutning inqiroziga zamin yaratadi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi hissiy aloqalarning susayishi (58,7% holatda), «ijtimoiy yetimlik» fenomenining kuchayishi (64,3% holatda) hamda sadoqat va mas'uliyat kabi axloqiy me'yorlardan voz kechish deformatsiyaning yaqqol ko'rinishlaridir. Buning oqibatida oilaviy barqarorlik yo'qoladi, ajrimlar soni ortib, har 7–8 nikohdan biri barbod bo'ladi va avlodlar davomiyligi xavf ostida qoladi.

Taqqoslash jadvali

Mezon	Transformatsiya	Deformatsiya
Jarayon yo'nalishi	Evolyutsiyaviy, moslashuvchan	Inqirozli, buzilishga moyil
Ijtimoiy natija	Yangi oila modellarining shakllanishi	Oilaviy munosabatlarning zaiflashuvi
Qadriyatlar holati	Boyitiladi yoki qayta formatlanadi	Yo'qotiladi yoki soxtalashtiriladi
Migratsiyadagi misoli	Raqamli muloqot orqali aloqani saqlash	«Masofaviy oila»da hissiy uzilish va xiyonat

Taqqoslash jadvaliga asoslanib aytadigan bo'lsak, transformatsiya jarayoni evolyutsiyaviy va moslashuvchan yo'nalishga ega bo'lib, yangi oila modellarining shakllanishiga, qadriyatlarning qayta formatlanishiga va raqamli muloqot orqali aloqalarning saqlanishiga xizmat qiladi. Deformatsiya esa inqirozli va buzilishga moyil bo'lib, munosabatlarning zaiflashuviga, qadriyatlarning yo'qotilishiga hamda «masofaviy oila»da hissiy uzilish va xiyonat holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, migratsiya ta'siridagi o'zgarishlarni faqat «deformatsiya» deb emas, balki oilaning zamonaviy sharoitda omon qolishga intilayotgan «transformatsiyasi» sifatida ham tahlil qilish muammoga nisbatan konstruktiv ijtimoiy yechimlar taklif qilish imkonini beradi.

XULOSA

Tashqi migratsiya jarayonlarining oilaviy qadriyatlar barqarorligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan sotsiologik tahlillar natijasida bir qator tizimli xulosalarga kelindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya ta'sirida an'anaviy oilaviy qadriyatlar deformatsiyaga uchramoqda, xususan, jamiyatda individuallik va moddiy manfaatdorlikning o'sishi kuzatilmoqda. Erkaklar migratsiyasi natijasida ayollar zimmasiga oila boshqaruvi va moddiy ta'minot kabi qo'shimcha mas'uliyatlar yuklanib, an'anaviy gender rollari transformatsiyaga uchramoqda. Uzoq muddatli migratsiya «masofaviy oila»larda ruhiy ajralish fenomenini keltirib chiqarib, er-xotin va ota-bola o'rtasidagi hissiy aloqalarning susayishiga sabab bo'lmoqda. Bolalar tarbiyasida ota yoki ona ishtirokining kamayishi farzandlarning ijtimoiylashuvi va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu holat respondentlarning 64,3 foizida qayd etilgan. Moddiy farovonlikning oshishi (72,1%) oila iqtisodiy holatini yaxshilasa-da, ma'naviy va hissiy barqarorlik uchun diniy-milliy qadriyatlar hamda raqamli kommunikatsiya asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

Migratsiya sharoitida oila institutini mustahkamlash maqsadida ijtimoiy siyosat yo'nalishida migrantlar va ularning oila a'zolariga ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatishning institutsional mexanizmlarini, jumladan, mahalla va davlat idoralari hamkorligini kengaytirish zarur. Xorijdan qaytgan migrantlarni jamiyatga samarali moslashtirish uchun ularning bandligini ta'minlash va tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, migrant oilalari uchun masofaviy psixologik konsultatsiya va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi raqamli platformalarni rivojlantirish tavsia etiladi.

Pedagogik yondashuvlar doirasida ta'lim tizimi va OAV orqali yoshlar ongida oilaning muqaddasligi va ota-onalik mas'uliyati haqidagi milliy qadriyatlarni zamonaviy usullarda targ'ib qilish lozim. Migrant oilalarida masofadan turib farzand tarbiyasini tashkil etish bo'yicha ota-onalarning pedagogik va raqamli ko'nikmalarini oshirish, shuningdek, ota-onasi migratsiyada bo'lgan bolalarning ta'lim olishi va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda mahalla va maktabning o'zaro ijtimoiy sherikligini kuchaytirish dolzarb vazifadir. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi global migratsiya jarayonlari sharoitida milliy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4829-son "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-149-son "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PQ-367-son "Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son "Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. 2023-yildagi nikohlar va ajrimlar statistikasiga oid yillik hisobot.
6. Abdurazzokovych S. N., Salimova Z. I. Demographic and migration processes in Central Asia and their impact on Uzbek ethnogenesis // *Obrazovanie Nauka i Innovatsionnye Idei v Mire*. – 2024. – Vol. 55, No. 5. – Pp. 20–26.
7. Jabbarov U. Fathers' roles within the family: tradition and transition // *Mental Enlightenment Scientific Methodological Journal*. – 2024. – Vol. 5, No. 7. – Pp. 84–95.
8. Namanovna A. The negative effect of population migration on the family environment // *Ilmiy jurnallar konferensiyasi*. – 2023.
9. Rashidova M. K., Buranova N. A. Family values as a key factor in preserving traditions and identity // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2025. – Vol. 6, No. 5. – Pp. 7–10.
10. Ruzimova N. M. Migratsiyaning oilaviy qadriyatlarga ta'siri: xalqaro va mahalliy tendensiyalar tahlili // *Central Asian Journal of Education and Innovation*. – 2025. – Vol. 4, Issue 7. – Pp. 137–144.
11. Ruzimova N. M. The concept of family values: theoretical foundations and their role in social life // *Oriental Journal of History, Politics and Law*. – 2025. – Pp. 166–177.
12. Ruzimova N. M. Yoshlar ongi va migratsiya jarayoni o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik: konseptual yondashuvlar // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*. – 2025. – Vol. 2, Issue 7. – Pp. 153–160.
13. UNESCO. Inclusive Societies Programme: Migration and cultural dialogue reports. – Paris, 2021.